



MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA EKOLOGIK BILIMDONLIGINI OSHIRISHDA AMALIY MASHG'ULOTNING AHAMIYATI

Berdiqobilova Kamola O'ktamovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi
E-mail: Solihhasadiya@1521gmail.com
Tel: +998900389094

Bovanova Umida Abduvahobovna

Ilmiy rahbar: Toshkent amaliy fanlar universiteti
katta o'qituvchisi
E-mail: (umidabovanova8@gmail.com)
Tel: +998974028797

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15684653>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 14-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 17-Iyun 2025 yil

KEY WORDS

Ekologiya, integratsiya, atrof-muhit, innovatsion ta'lim, atrof-muhit, tarbiya, oila, tabiat, organism, fan, maktab, jamoaviy ta'sir, atama, jamiyat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktabdagi ekologik tarbiyaning ta'siri hamda oilada ekologik tarbiya berishda amaliy mashg'ulotlarning roli haqida so'z yuritilib, ekologik ta'limning sifatli tashkil etilishining bolalarga ta'siri, atrof-muhit uchun foydalari, boshlang'ich ta'limda ekologik ta'lim berishda qiyinchiliklar va yechimlar, oilalarda ekologik tarbiyaning ahamiyati, ekologik ta'limni integratsiyalash strategiyalari, oilalarda ekologik tarbiya natijalari va amalga oshirishdagi muammolar haqida ma'lumotlar berilgan.

"Ekologiya" atamasi (yunoncha oikos-uy, logos-fan, o'rgatish) taniqli nemis biologi Ernest Gekkel tomonidan fanga kiritildi. Ekologiya, bu organizmlarning atrof- muhit bilan munosabatlari haqidagi umumiy fan "Organizm- larning umumiy morfologiyasi" (1866) deb atadi. Ekologiya fanining bir qator ta'riflari mavjud. Hozirgi kunda ko'pchilik tadqiqotchilar ekologiya - tirik organizmlarning bir-biriga va atrof-muhitga bo'lgan munosabatini yoki tirik organizmlarning mavjudligi sharoitlarini, ular yashayotgan atrof-muhit o'rtasidagi munosabatni o'rganadigan fan.

"Ekologiya" nomli asosiy kitobida (1986) Amerika ekologi J.Odum quyidagi ta'riflarni beradi: "Ekologiya - o'zaro bog'liqlikda tabiat va jamiyatdagi ko'p bosqichli tizimlarning tuzilishi va faoliyati haqida fanlararo bilim sohasidir." Ekologik ta'lim - bu atrof-muhit va barqarorlik bilan bog'liq bilimlarni berish va qadriyatlarini tarbiyalash jarayonini anglatadi". Ekologik tarbiyaning maqsadi yosh avlodda tabiatga muhabbat, vatanparvarlik, tirik organizmlarga g'amxo'rlik qilish fazilatlarini shakllantirishdan iborat. Hozirgi vaqtda ekologiya odamlarga tabiiy hamjamiyat bilan uyg'unlikda yashashga yordam beradigan alohida fanga aylandi.

Asosiy qism: O'quvchilar tabiat va dunyoni tanish va undagi moddiy va tabiiy boyliklarni asrash hamda ularga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni o'rganadi. Umumiy ta'lim maktablarida beriladigan ekologik ta'lim bolalar va atrof-muhit uchun bir qancha ijobiy natijalarga ega. Ekologik ongni rivojlantirish orqali bolalarga tabiat va yovvoyi tabiat haqida bilim berish, barqaror amaliyotlarni rag'batlantirish, atrof-muhitga hurmatni

oshirishga erishish mumkin. Misol uchun maktablarda bog'dorchilik ishlarining tashkil etilishi, bolalarda tabiatdagi tirik komponentlar bilan yaqindan tanishish, ularning foydali tomonlarini amaliyot orqali bilib olish, mevalarni tatib ko'rish orqali hissiy anglash va tabiat hamda tirik organizmlarga ijobiy munosabatlar motivlarini rivojlantirib boradi. Bolalarga ekologik ta'lim berishda quyidagi yo'nalishlar muhim sanaladi:

1. Ekotizimlar haqida tushuncha berish:

- Tirik organizmlarning o'zaro bog'liqligini o'rganish
- Ekotizimlarning asosiy tushunchalari bilan tanishtirish
- Ekotizimlarni o'rganish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar

Misol tariqasida sinfda mini ekotizimni or'natish o'zining yaxshi samarasini beradi.

2. Saqlash va qayta ishlash:

- Tabiatni muhofaza qilishning ahamiyatini o'rgatish
- Qayta ishlash odatlarini rag'batlantirish
- Chiqindilarni kamaytirish haqida xabardorlikni shakllantirish
- Misol: qayta ishlangan materiallardan foydalangan holda san'at va hunarmandchilik

namunalarini yasash.

3. Tabiat bilan aloqaorlik:

- Ochiq havoda o'rganish tajribasi
- Tabiatda sayr qilish va o'rganish
- Tabiat dunyosiga nisbatan hayrat va qiziqish tuyg'usini rag'batlantirish

Ekologik ta'limning sifatli tashkil etilishining bolalarga ta'siri quyidagicha:

- Tabiat va hayvonlarga nisbatan hamdardlikni rivojlantiradi.
- Muammoni hal qilish ko'nikmalarini oshiradi
- Atrof-muhit uchun mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

Oilaviy hayotda ekologik ta'limni integratsiyalash strategiyalari haqida gapirganda albatta ekologik ta'limni rivojlantirishning samarali strategiyalaridan biri bu o'rnak ko'rsatishdir. Qayta ishlash, suvni tejash va chiqindilarni kamaytirish kabi ekologik toza odatlarga amal qiladigan ota-onalar farzandlariga amal qilishlari kerak bo'lgan aniq namunani o'rnatadilar. Bundan tashqari, bolalarni bog'dorchilik, piyoda sayr qilish yoki qushlarni kuzatish kabi tabiat bilan bog'liq tadbirlarga jalb qilish ularga tabiiy dunyo bilan chuqur aloqani rivojlantirishga yordam beradi. Oilada atrof-muhit muammolari bo'yicha ochiq muloqotni rag'batlantirish sayyoramiz duch keladigan muammolarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Oilalarda ekologik tarbiya natijalaridan ekologik ta'limni oilaviy hayotga singdirish samarasi chuqurdir. Ekologik ta'limga ustuvor ahamiyat beradigan oilalar ko'pincha o'rmonlarni kesish, ifloslanish va iqlim o'zgarishi kabi dolzarb ekologik muammolar haqida xabardorlikni oshiradilar. Bu ko'tarilgan xabardorlik harakatga aylanadi, ko'plab oilalar qayta foydalanish mumkin bo'lgan mahsulotlardan foydalanish, energiya sarfini kamaytirish va tabiatni muhofaza qilish sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash kabi barqaror turmush tarzini tanlashni afzal ko'radi. Vaqt o'tishi bilan, bu individual harakatlar atrof-muhitga jamoaviy ta'sir ko'rsatishga yordam beradi, oilalar kelajak avlodlar uchun yanada barqaror kelajakni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan bolalarni ekologiya bilan tanishtirishda ta'lim berishning asosiy usullaridan biri ekskursiya hisoblanadi. Ekskursiya jarayonida bolalar

tabiat to'g'risidagi aniq tasavvurga ko'rish, sezish, eshitish bilan idrok etish orqali ega bo'ladi. Ekskursiya jarayonida bolalarda tabiat, undagi qonuniyatlar to'g'risida realistik tasavvurlar hosil bo'ladi. Bu jarayon orqali o'rganilgan tushunchalar keyinchalik bolalar egallaydigan ilmiy bilimlarning asosini tashkil etib, yuqori sinflarda o'rganiladigan tabiiy fanlarni o'zlashtirib olishni osonlashtiradi.

O'qituvchi tomonidan tashkillashtirilgan ekologik to'garaklarda, tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu to'garak bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazidir. Ekologik to'garak faoliyati to'g'ri tashkil etilsa, amaliy mashg'ulotlar qiziqarli holatda o'tkazilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o'zlashtiradi. Amaliy mashg'ulotlar nafaqat bolalarda, balki pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi.

Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi ma'lumotlar va chiqindilarni utilizatsiya qilish qoidalari bilan tanishtirilsa, bolalarda ekologiyaga bo'lgan qiziqish yanada ortadi. Maktab sharoitida xavfsizlik qoidalarni inobatga olgan holda o'quvchilar bilan amaliy mashg'ulotlar o'tish mumkin. Masalan, ilk amaliy mashg'ulotlar quyidagicha ko'rinishda o'tkazishimiz mumkin. Dastlab, o'quvchilarga amaliy mashg'ulot mavzusi aytiladi va amaliy mashg'ulotning maqsadi va vazifalari haqida qo'shimcha qilib o'tiladi.

Ishning borish ketma-ketligi to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Sinfda xonaning havosini tozalash maqsadida bolalarning o'z qo'llari bilan urug'larni tuvaklarga sepish orqali, unga suv quyishi va urug' unib chiqishi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi. O'quvchilar amaliy mashg'ulotdan kutiladigan natijalarni daftarlariga qayd qilib olishlari, mashg'ulotni yanada esda qolarli bo'lishini ta'minlaydi. Mashg'ulotlar turli shakllarda olib boriladi va bularning ayrimlarida boshlang'ich bilimlar shakllantiriladi. Buning uchun o'qituvchi kuzatish metodidan, ko'rgazmali qurollardan, rasmlar va multimedia vositalaridan foydalanadi. Boshqa mashg'ulotlarda esa bolalarning bilimlari aniqlanadi, kengaytiriladi va chuqurtlashtirilgan holda o'rgatiladi.

Mashg'ulotlarda asosan didaktik o'yinlar, umumlashtiruvchi so'zlardan, bolalarning tabiatdagi amalga oshiradigan mehnatidan foydalaniladi. Barcha guruhlarda mashg'ulotlarni yanada yaxshi natija berishi va qiziqarli muhitni tashkil qilish uchun sayrlarda suhbat metodidan foydalaniladi.

Xulosa. Demak, bolalarda ekologik tarbiyani rivojlantirish orqali ularning tabiatga bo'lgan mehrini, shakllantirish va kelajakda tabiiy fanlarni o'zlashtirishi uchun poydevor yaratiladi. Bolalarga ekologik tarbiya berishda va zamonaviy usullardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Bundan tashqari boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga ekologik bilim berishda zamonaviy texnologiyalardan biri VR (virtual moslama)lardan foydalanishni taklif qilgan bo'lardim. Bu innovatsion texnologiya yurtimizda asta-sekinlik bilan rivojlanib bormoqda. Bu orqali bolalarning o'zlashtirishini yanada oshirish va qiziqarli, innovatsion ta'lim jarayonini tashkil etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Turabjanov S.M., Aripova M.M., Raximova L.S. "Ijtimoiy ekologiya" T.: "BOOK TRADE".2022.
2. Xo'janazarov O'E., Yakubjonova Sh. "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish".O'quv qo'llanma. Toshkent-2018.
3. Xodjimatov A.N.,Alimkulov N.R., Xolmurodov Sh.A., Djuraev M.E. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. T.: "Innovation rivojlanish nashriyoti-Matbaa uyi", 2020. 228 b.
4. Ergashev A., Yulchiyeva M., Ahmedov O', Abzalov A. Umumiy ekologiya. Toshkent-2014.



INNOVATIVE
ACADEMY